



AVRANGZEB DAVRIDA BOBURIYLAR SALTANATINING KENGAYTIRILISHI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li

Andijon Davlat Universiteti tarix fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6727197>

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022

Accepted: 02nd June 2022

Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Assam, Bengaliya,
Komakupa, Avrangzeb,
Dekkon, Golkon, Maratha,
Davlatobod.

Assam viloyati. Shoh Jahon o'g'illarining taxt uchun olib borgan urushlaridan ilhomlangan Assam va Ko'xi Bixar viloyati hokimlari boburiylar davlati chegaralarini tez-tez buzib, talonchilik qilib turardi. 1657 yilda Ko'xi Bixar hokimi Prem Naroyan Bengaliyaning chegaralarini buzdi. 1658 yilda Assam viloyati hokimi boburiylarga qarashli Komarupa viloyatiga hujum qilib, uning poytaxti Gavxatini egalladi.

Shunga qaramay, 1661 yilgacha ular bu holga befarq qarab turdilar. O'zining taxtdagi mavqeini mustahkamlab olgach, Avrangzeb o'zining yaqin kishilaridan bo'lgan Mir Jumlan Bengaliyaga hokim etib tayinladi va unga Assamga harbiy yurish qilish vazifasini yukladi. 1661 yilda Mir Jumla Ko'xi Bixarni egalladi, 1662 yilda rojaning poytaxti Gorgaonni bosib oldi. Mir Jumla qo'shinlari ham talafot ko'rdi, yomg'irli kunlarda tarqalgan yuqumli kasallikdan minglab askarlar qirildi. Mir Jumla Assam hokimini sulhga ko'ndirdi.

1663 yilda Mir Jumla vafot etib, uning o'rniga Shoyistaxon Bengaliya hokimi etib

ABSTRACT

Ushbu maqolada Avrangzeb Olamgir hukmronligi davrida Zahiriddin Muhammad Bobur asos solgan boburiylar saltanatining kengaytirilishi, xususan Assam viloyati, Janubiy Hindiston, Bijopur hamda boshqa joylarning egallanishi hamda bu boradagi qiyinchiliklar xususida qisqacha so'z yuritiladi.

tayinlandi. U Arokan rojasini mag'lub etib, Assamni to'rt yilgacha boburiylar tasirida tutib turdi. Biroq, 1667 yilda Gavxati qo'ldan chiqib ketdi.

Janubiy Hindiston. Avrangzeb isyonkor o'g'li Akbarni ta'qib etib, 1682 yilda Dekkon o'lkasiga kelib qoldi. Shundan keyin uning shimolga qaytib ketishga vaqti bo'lmadi. Hind tarixchisi doktor Jodunat Sarkorning yozishicha, Avrangzebning hukmronlik davri xar biri 25 yildan iborat ikki qismga bo'linadi. Birinchi qismi Shimoliy Hindistonda o'tgan bo'lsa, ikkinchi qismi Dekkonda o'tdi.

Bijopurning olinishi. Bir necha bor natijasiz urinishlaridan so'ng Avrangzeb 1685 yilda o'g'li shahzoda A'zam orqali Bijopur qal'asini qamal qildi. 13 oyda ham qal'ani ololmagach, bu yerga o'zi yetib keldi. 1686 yilning 22 sentyabrida hokim Iskandarshoh qal'ani topshirib, o'zi Avrangzeb huzuriga keldi. Avrangzeb unga xon unvonini berib, yiliga yuz ming rupiy nafaqa tayinladi.



1685 yilda Avrangzeb shahzoda Shoh A'lamni Golkondani bosib olish uchun yubordi. Golkonda qo'shini Molxed degan joy yaqinida ular bilan yuzma-yuz keldi. Ularning sarkardasi Mir Muhammad boburiylar tomoniga qochib o'tgach, lashkar tarqalib ketdi. Sulton Qutbshoh esa Xaydarobodga qochib, Golkonda qal'asiga yashirindi. Avrangzeb askarlari shiddat bilan Xaydarobodni o'rab oldi. Qutbshohning muzokarasi qabul qilinmadi.

Uning amaldorlaridan Abdulla Poniy Avrangzebga sotilib, qal'a eshigini ochib berdi va 1687 yilning oktabr oyida Golkonda boburiylar ixtiyoriga o'tdi. Avrangzeb davrida hindlarning maratha mazxabidagilar unga qarshi bosh ko'tardi. Ular Mahorashtra viloyatida o'zlarining mustaqil davlatini tuzgan edi. Avrangzeb bunga chidab turolmay, uni vayron qildi. Bu bilan marathalar tinchidi deb bo'lmasdi. Umrining oxirigacha Avrangzeb ular bilan olishib o'tdi. Maratha elatining asoschisi Shivaji hisoblanar va ular o'z kurashlari bilan boburiylar saltanatining parchalanib ketishiga sezilarli hissa qo'shdilar.

1674 yilning 16 iyunida Shivaji Dekkon o'lkasidagi Raygar qal'asida Maratha davlati tuzilganini va o'zi uning shohi (Chatrapati) ekanini e'lon qildi. 1680 yilning 14 iyunida u vafot etdi. Uning ishlarini o'g'li Shambxuji davom ettirdi. 1689 yilda Avrangzeb Shambxujini, vaziri Kavi Kalesh va boshqa amaldorlarini o'ldirdi. Shu bilan janubiy Hindiston butunlay egallandi. Biroq, keyingi yillarda

marathalar yana bosh ko'tarib, Avrangzeb keksayib qolgan chog'larda o'zlarini ancha erkin tuta boshladilar.

1706 yilda Avrangzeb Ahmadnagarga kelganda marathalar har tomonda izg'ib yurishar edi. Shundan keyin Arangzeb oilasi inqirozga yuz tuta boshladi. 1702 yilda uning qizi mashhur shoira Zebunniso vafot etdi, 1704 yilda isyonkor o'g'li Akbar Eronda quvg'inda olamdan o'tdi, 1705 yilda sevimli kelini Jahonzeb dunyodan ko'z yumdi, 1706 yilda tirik qolgan yagona singlisi Gavharoro bandalikni bajo keltirdi.

Xuddi shu yili qizi Mehriniso va uning eri Izzat Baxsh (Avrangzebning ukasi, Murod Baxshning o'g'li) dorulfanodan dorulbaqoga rihlat qildi. Bir oy o'tmay nevarasi (Akbarning o'g'li) Baland Akbar vafot etdi. O'zining vafotidan bir oz ilgariroq Avrangzebning yana ikki nevarasi olamdan o'tdi. Saltanatida, ayniqsa, shimoliy Hindistonda isyonlar ko'tarila boshladi, Dekkon o'lkasida marathalar ancha kuchayib, qo'shni Gujarat va Molvagacha tajovuz qilmoqda edi.

Davlatni idora qilishning iloji bo'lmay qolgan va mamlakatda iqtisodiy yemirilish boshlangandi. Shahzodalardan A'zam, Muazzam va Kom Baxshlar taxt uchun jang qilishga shaylanib turgandilar. Ana shunday kunlarda Avrangzeb Olamgir 1707 yilning 3 mart kuni dunyodan kuz yumdi. Uning jasadi Davlatoboddan 4 milcha naridagi Shayx Zayn ul-haq qabri yoniga dafn etildi.

References:

1. Turg'un Fayziyev. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: "Yozuvchi", 1996y.
2. G'ofurjon Sotimov. Boburiyzodalar. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2003y.
3. N. G'. Nizomiddinov. Buyuk boburiylar tarixi. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2012y.